ЗАКОНОМЕРНОСТИ ПОВЕДЕНИЯ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ РЫНОЧНОГО СПРОСА.....	1185
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
BUDJET TASHKILOTLARINI SAMARALI BOSHQARISHDA ICHKI AUDITNING ROLI	1188
Karimov Djaxongir Ganiboevich, Nasriev G'olibjon Muxiddinovich	
YAPONIYADA IJTIMOIIY HIMOYA DASTURLARI VA IJTIMOIIY SUG'URTA TIZIMI	1193
Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING KONSEPSIYASIGA O'TISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1197
Bobomurodov Qayimjon Homidovich	
ВЛИЯНИЕ ЦЕНОВОЙ КОНКУРЕНЦИИ НА УСТОЙЧИВОСТЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ	1203
Гойибназарова Нозимахон Хамзаевна	
SUG'URTA TASHKILOTLARI DAROMADLARI VA ULARNING SOLIQQA TORTISH MEKANIZMI.....	1209
Buranova Lola Vaxobovna, Yaxshillikov Murod	
BUDJET MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA RAQAMLASHTIRISH VA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI	1215
Ro'ziyeva Dilobar Isomjonovna, Muxtorov Muhammadyunus Muhammadyusuf o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РЕГУЛИРОВАНИЯ РЫНКА ТРУДА.....	1222
Камилова Наргиза Абдукажоровна	



SIRKULAR IQTISODIYOTDA KO'P TOMONLAMA MANFAATDOR TOMONLAR HAMKORLIGINING YUTUQLARI	1226
Sodiqov Zokir Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT TURIZMINI RIVOJLANISH HOLATI VA ASOSIY TENDENTSIYALARINING TAHLILI: TOG', SUV, VELO, EXTREMAL SPORT TURIZMLARI MISOLIDA	1233
Kalandarov Jalol Abduljalilovich	
ГЕНДЕРНАЯ ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ И ПОВЕДЕНЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1242
Захарова Ирина Борисовна	
QURILISH SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1247
Xolov Xamza Tojiddinovich	
INNOVATSION SALOHİYATNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING HUDUDIY SSENARIYLARI: NOMUTANOSIBLIKLAR VA PROGNOZLI BAHOLASH	1254
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
IQTISODIYOT TARMOQLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	1261
Ollokulova Feruza Mansurovna, To'rayeva Xadicha Ro'ziboy qizi	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	1264
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
УПРАВЛЕНИЕ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЕКТАМИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЭЛЕКТРОСЕТЕВОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1270
Тошқулов Сирожиддин Акбарқул угли	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING TASHKILY TUZILMASI VA ULARNING FAOLIYATI TAHLILI	1276
Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	



OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINING TASHKILY TUZILMASI VA ULARNING FAOLIYATI TAHLILI

Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,

Ichki audit boshqarmasi bosh mutaxassisi

E-mail: avazbekmamatqulov1987@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0362-8245

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ichki audit xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslari hamda uning faoliyat samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida sohaga oid so'nggi me'yoriy-huquqiy o'zgarishlar (VMQ-416, VMQ-280, VMQ-62), shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti misolida ichki auditning vertikal bo'ysunuv modeli o'rganilgan. Maqolada davlat va nodavlat OTMlarda moliyaviy nazorat tizimining o'ziga xos jihatlari yoritilib, tizimni raqamlashtirish hamda xatarlarga asoslangan audit (risk-based audit (xatarga asoslangan audit)) modellarini joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit, oliy ta'lim, tashkiliy tuzilma, moliyaviy nazorat, VMQ-416, TDIU, raqamli audit, xatarlarni boshqarish, nodavlat oliy ta'lim.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the organizational and legal foundations of the internal audit service in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan, as well as an assessment of its operational effectiveness. The study examines recent regulatory changes in the sector (VMQ-416, VMQ-280, VMQ-62) and analyzes the vertical subordination model of internal audit based on the case of Tashkent State University of Economics. The paper highlights the specific features of financial control systems in public and private higher education institutions and presents evidence-based recommendations for system digitalization and the implementation of risk-based audit (xatarga asoslangan audit) models.

Key words: internal audit, higher education, organizational structure, financial control, VMQ-416, TSUE, digital audit, risk management, private higher education.

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ организационно-правовых основ службы внутреннего аудита в высших образовательных учреждениях Республики Узбекистан, а также оценена эффективность её деятельности. В ходе исследования изучены последние нормативно-правовые изменения в данной сфере (VMQ-416, VMQ-280, VMQ-62), а также модель вертикального подчинения внутреннего аудита на примере Ташкентский государственный экономический университет. В статье раскрыты особенности системы финансового контроля в государственных и негосударственных вузах, а также предложены научно обоснованные рекомендации по цифровизации системы и внедрению риск-ориентированных моделей аудита (risk-based audit (xatarga asoslangan audit)).

Ключевые слова: внутренний аудит, высшее образование, организационная структура, финансовый контроль, VMQ-416, ТГЭУ, цифровой аудит, управление рисками, негосударственное высшее образование.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini isloh qilish, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish hamda boshqaruvning ortiqcha markazlashuvini qisqartirish strategiyasi doirasida ta'lim muassasalarining moliyaviy va akademik mustaqilligi bosqichma-bosqich kengaytirilmoqda. Ushbu o'tish jarayoni, o'z navbatida, moliyaxo'jalik faoliyatida yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlash, ajratilayotgan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lardan maqsadli hamda samarali foydalanish, shuningdek, tizimli xatarlarni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishni talab etadi¹. Bunday sharoitda oliy ta'lim muassasalarida (OTM) obyektiv, xolis va mustaqil faoliyat yurituvchi ichki audit xizmatining o'rni yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 416-son qarori. <https://lex.uz/en/docs/-6136910>.



Bugungi kunda oliy ta'lim tizimidagi ichki audit xizmati an'anaviy taftish, xatolarni aniqlash va faqat nazorat funksiyasini bajaruvchi organ maqomidan chiqib, xalqaro amaliyot talablari asosida strategik maslahatchi hamda profilaktik nazorat institutiga aylanib bormoqda. Xususan, moliya va ta'lim sohasida INTOSAI (Oliy audit organlari xalqaro tashkiloti) kabi nufuzli xalqaro standartlar tamoyillariga tayanish, shuningdek, audit rejalashtirishda ekonometrik tahlillar va ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) modellardan foydalanish moliyaviy anomalialar hamda korrupsion xatolarni barvaqt aniqlashning samarali vositasi sifatida e'tirof etilmoqda².

Davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan davlat OTmlarida ichki audit faoliyatini tashkil etish, uning kadrlar salohiyatini shakllantirish hamda yagona sertifikatlash tizimini joriy etish maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan³. Shu bilan birga, ta'lim xizmatlari bozorida ulushi jadal ortib borayotgan nodavlat oliy ta'lim muassasalarida (NOTM) mazkur tizimli yondashuvni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Xorijiy davlatlar, jumladan, AQSh va Buyuk Britaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat grantlari, ta'lim kreditlari yoki subsidiyalarini jalb etuvchi har qanday ta'lim muassasasi (davlat yoki xususiy) samarali ichki nazorat va audit standartlariga amal qilishi lozim⁴.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi respublikamizdagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ichki audit xizmatining amaldagi tashkiliy tuzilmasini chuqur tahlil qilish, ularning faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi huquqiy va tashkiliy omillarni baholash hamda tizimni xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va samarali mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimini tashkil etish, davlat moliyaviy nazoratini zamonaviy standartlar asosida transformatsiya qilish hamda moliyaviy xatolarni boshqarish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Shu bilan birga, ta'lim tizimining moliyaviy mustaqillikka o'tish davrida ushbu mexanizmlarning o'ziga xos jihatlarni chuqur o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida saqlanib qolmoqda.

Xorijiy olimlar qarashlari va muallif munosabati. Zamonaviy ichki audit nazariyasining yetakchi namoyandalardan biri Lawrence Sawyer o'z ilmiy asarlarida ichki audit faqat xatolarni aniqlovchi nazorat mexanizmi bo'lib qolmasdan, balki tashkilot rahbariyatiga moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda strategik maslahatchi (consultant) sifatida xizmat qilishi lozimligini ta'kidlaydi⁵. Italiyalik olimlar M. Arena va G. Azzone esa oliy ta'lim hamda davlat sektorida ichki audit samaradorligini baholashda an'anaviy taftishdan ko'ra xatolarga asoslangan audit (risk-based audit (xatarga asoslangan audit)) modellarini qo'llash moliya-xo'jalik jarayonlarining barqarorligini oshirishda yuqori samaradorlik berishini empirik jihatdan asoslab berganlar⁶.

Munosabat. Xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlarini qo'llab-quvvatlagan holda ta'kidlash joizki, ularning tadqiqotlari asosan moliyaviy avtonomiyasi to'liq shakllangan G'arb universitetlari misolida olib borilgan. O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan va oliy ta'lim tizimida moliyaviy mustaqillik bosqichma-bosqich joriy etilayotgan sharoitda ichki auditning funksional roli evolyutsion tarzda rivojlanmoqda. Shu sababli, milliy OTmlarda dastlabki bosqichda ichki auditning "komplyans-nazorat" va "maslahat" funksiyalarini o'zaro uyg'unlashtirgan gibridd modelini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mahalliy olimlar qarashlari va muallif munosabati. Respublikamizda davlat moliyaviy nazorati va audit tizimini takomillashtirish masalalari U.A. Burxonov va T.S. Malikov kabi yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Xususan, professor U.A. Burxonov o'z ilmiy izlanishlarida byudjet tashkilotlari, jumladan OTmlarda INTOSAI standartlarini joriy etish hamda ichki audit xodimlarining institutsional mustaqilligini ta'minlash byudjet mablag'laridan samarali foydalanishning muhim omili ekanligini asoslab beradi⁷. Shuningdek, yosh tadqiqotchi A.E. Meliboyev ilmiy ishlarida ta'lim xizmatlari bozorida faoliyat yuritayotgan nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ichki audit tizimini rivojlantirish zarurati va uning amaliy ahamiyatini alohida ta'kidlaydi⁸.

2 Internal Audit Standards Board. International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing. Institute of Internal Auditors (IIA), 2021.

3 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-son qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-5410856>.

4 ACUA - Association of College and University Auditors. Best Practices for Internal Audit in Higher Education. Washington DC, 2020.

5 Sawyer, L. B., Dittenhofer, M. A., & Scheiner, J. H. (2003). Sawyer's Internal Auditing: The Practice of Modern Internal Auditing. Institute of Internal Auditors.

6 Arena, M., & Azzone, G. (2009). Identifying Organizational Drivers of Internal Audit Effectiveness. International Journal of Auditing, 13(1), 43-60.

7 Burxonov, U. A. (2020). Davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish masalalari va xalqaro tajriba. Moliya va bank ishi elektron ilmiy jurnali, 5(2), 12-19.

8 Meliboyev, A. E. (2025). Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ichki audit: Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun takliflar. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(5).



Munosabat. Mahalliy olimlarning ushbu ilmiy yondashuvlariga tayangan holda aytish mumkinki, ularning aksariyat izlanishlari davlat moliyaviy nazoratining umumiy makroiqtisodiy jihatlariga qaratilgan. Biroq, 2022-2023-yillarda qabul qilingan yangi me'yoriy-huquqiy hujjatlar (xususan, VMQ-416 hamda ichki audit kadrlarini sertifikatlash tizimini joriy etgan VMQ-62) sharoitida OTM ichki audit xizmatlarining zamonaviy vertikal boshqaruv tuzilmasi va professional kadrlar salohiyatini shakllantirish masalalari yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi. Mazkur maqola aynan davlat va nodavlat OTMlar iyerarxiyasida ichki audit xizmatining o'rnini strukturaviy tahlil qilish orqali ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lgan ushbu yo'nalishni yanada boyitishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi oliy ta'lim tizimida moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy-uslubiy hamda me'yoriy-huquqiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan kompleks yondashuvdan iborat. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari tanlangan bo'lib, predmet sifatida ushbu muassasalarning ichki audit xizmati tashkiliy tuzilmasi va faoliyat mexanizmlari belgilandi. Tadqiqotning birinchi bosqichida deduksiya usulidan foydalanilgan holda umummilliy normativ-huquqiy hujjatlardan konkret OTM ichki audit tizimiga o'tish amaliyoti tahlil qilindi. Bunda asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizom" talablariga qaratildi⁹. Mazkur hujjat asosida ichki audit xizmatining huquqiy maqomi, uning institutsional mustaqilligi hamda funksional vazifalari institutsional tahlil metodikasi doirasida o'rganildi. Shu bosqichda oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi sharoitida ichki auditning yangi vertikal boshqaruv modeli, ya'ni uning bevosita rektorga hamda yuqori turuvchi vazirlikning ichki audit boshqarmasiga bo'ysunish tartibi tizimli ravishda modellashtirildi.

Oliy ta'lim muassasalari ichki auditorlarining kasbiy kompetensiyasini baholashda miqdoriy va sifat tahlili usullari qo'llanildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi 280-son qarori bilan joriy etilgan milliy sertifikatlash tizimi talabgorlarga qo'yiladigan malaka darajalari bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi¹⁰. Tadqiqotda auditorlarning bilim darajasini aniqlashda foydalaniladigan test sinovlari (60 ta savol, kamida 75% natija talabi) hamda yillik 20 soatlik malaka oshirish tizimi kadrlar salohiyatini barqaror rivojlantirish ko'rsatkichi sifatida baholandi.

Maqolada O'zbekistondagi milliy modelni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish darajasini aniqlash maqsadida qiyosiy tahlil metodidan keng foydalanildi. Xususan, davlat auditi standartlari (ISSAI) doirasida OTMlarda davlat resurslaridan foydalanishda INTOSAI tamoyillarining (mustaqillik, xolislik, kompetentlik) qo'llanilishi o'rganildi. Shuningdek, AQSh, Koreya Respublikasi hamda Germaniya tajribasi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalarida ichki auditni tashkil etish modellari tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari (benchmarking) baholandi¹¹. Mazkur yondashuv doirasida nodavlat sektor uchun litsenziyalash talablari va moliyaviy shaffoflik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlashtirildi.

Nazariy xulosalarni amaliyot bilan uzviy bog'lash maqsadida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tashkiliy tuzilmasi amaliy "keys" sifatida tanlandi. Universitetning rasmiy tashkiliy tuzilmasi asosida "Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limi"ning boshqaruv iyerarxiyasidagi o'rnini vizual va funksional tahlil qilinib, uning moliyaxo'jalik bo'linmalaridan institutsional jihatdan ajratilganligi hamda bevosita strategik rahbariyatga bo'ysunishi samarali ichki nazorat tizimining ilg'or modeli sifatida tavsiflandi¹².

Ichki auditni rejalashtirishda xatarlarga asoslangan yondashuv (risk-based approach) metodikasi tadqiqotning markaziy yo'nalishini tashkil etdi. Ushbu yondashuv doirasida ma'lumotlar bazalaridan (Big Data) foydalanish orqali moliyaviy xatarlarni modellashtirish, oliy ta'lim tizimidagi ehtimoliy xavflar indeksini baholash hamda moliyaviy anomaliyalarni aniqlashda zamonaviy IT-audit vositalaridan foydalanishning metodologik asoslari ishlab chiqildi¹³. Tadqiqot davomida olingan barcha ma'lumotlar mantiqiy umumlashtirish, induksiya va ilmiy abstraksiya usullari asosida qayta ishlanib, amaliy ahamiyatga ega xulosalar shakllantirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil-13-fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi

9 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori. "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizom". <https://lex.uz/en/docs/-6136910>.

10 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi 280-son qarori. "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5410856>.

11 Meliboyev A.E. "Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ichki auditi: Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun takliflar". Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2025.

12 Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU). "Universitet tashkiliy tuzilmasi". Elektron manba: <https://tsue.uz/oz/university/structure> (Murojaat sanasi: 16.04.2026).

13 IIA (The Institute of Internal Auditors). International Professional Practices Framework (IPPF) - 2024 Edition. Global Perspectives on Risk-based audit (xatarga asoslangan audit)ing in Higher Education.



hamda davlat organlarining ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizom" talablari chuqur tahlil qilindi¹⁴. Ushbu me'yoriy hujjat asosida ichki auditorlarning kompetensiya darajasini nazorat qilish, ya'ni ularning nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishi, balki maxsus test sinovlaridan (kamida 75% natija bilan) muvaffaqiyatli o'tishi professional sifat mezoni sifatida baholandi. Shu bilan birga, sertifikatlash jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, imtihon jarayonining shaffofligini ta'minlash hamda inson omilini minimallashtirish ichki audit tizimining institutsional ishonchligini oshiruvchi muhim omil sifatida o'rganildi. Tadqiqotda, shuningdek, ichki audit xodimlarining mazkur sertifikatlash tizimidan o'tishi ularning umumdavlat moliyaviy nazorati standartlariga (audit evidence, materiality, risk assessment) muvofiqligini ta'minlovchi omil sifatida deduktiv yondashuv asosida baholandi.


Mazkur me'yoriy-huquqiy yondashuvni tadqiqot metodologiyasiga kiritish oliy ta'lim tizimidagi ichki audit xizmatlari xodimlarini tayyorlash jarayonida nafaqat ta'lim boshqaruvi organlari, balki ixtisoslashgan moliyaviy nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi institutlarning ham uzviy ishtirokini ilmiy asoslash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarida (OTM) ichki audit xizmati faoliyatini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur soha so'nggi uch yil davomida institutsional jihatdan izchil transformatsiya qilindi. Tadqiqot jarayonida olingan asosiy natijalarga ko'ra, VMQ-416-son qarori talablariga muvofiq davlat OTMlarida ichki audit xizmati mutlaq mustaqil tarkibiy tuzilma sifatida shakllantirilgan. Tahlillar asosida OTMlardagi ichki auditning ikki bosqichli bo'ysunuv modeli aniqlandi. Birinchidan, ma'muriy bo'ysunuv tizimiga ko'ra, ichki audit xizmati bevosita OTM rektoriga bo'ysunadi, bu esa uning muassasa tarkibidagi boshqa prorektorlar hamda bo'lim rahbarlaridan institutsional mustaqilligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, funksional bo'ysunuv tizimiga muvofiq, ichki audit xizmati uslubiy jihatdan va hisobdorlik nuqtai nazaridan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining Ichki audit boshqarmasiga bo'ysunadi¹⁵. Mazkur vertikal boshqaruv zanjiri audit obyektivligini mustahkamlashga, shuningdek, mahalliy darajadagi manfaatlar uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tashkiliy tuzilmasini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, "Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limi" universitetning strategik boshqaruv apparati tarkibiga kiritilgan bo'lib, bu holat mazkur bo'linmaning boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonidagi ahamiyati va institutsional mavqeiini yaqqol namoyon etadi (1-rasm)¹⁶.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Tashkiliy Tuzilmasi



1-rasm. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tashkiliy tuzilmasi asosida shakllantirilgan, ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limini tavsiflovchi rasm¹⁷.

14 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 62-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6382777>.

15 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizom". <https://lex.uz/en/docs/-6136910>.

16 Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rasmiy veb-sayti. "University Structure". Elektron manba: <https://tsue.uz/oz/university/structure> (Murojaat sanasi: 2026-yil aprel).

17 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Bo'limning tashkiliy joylashuvi tahlili shuni ko'rsatadiki, u moliya-iqtisod ishlariga mas'ul prorektorga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri rektorga hisobdor tarzda faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, bo'lim buxgalteriya hamda reja-moliya bo'linmalari bilan gorizontaal hamkorlik aloqalariga ega bo'lib, ularning hujjatlarini tekshirish vakolatiga ega. Mazkur model oliy ta'lim muassasasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda "pre-audit" (oldindan nazorat) tizimining samarali ishlashiga xizmat qiladi.

VMQ-280 hamda yangilangan VMQ-62-son qarorlari asosida OTM ichki auditorlariga qo'yilgan talablar tahlili natijasida tizimda professional saralash mexanizmi joriy etilgani aniqlandi¹⁸. Xususan, OTMlarda faoliyat yuritayotgan auditorlarning barchasi Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o'tkaziladigan milliy sertifikatlash jarayonidan o'tishi belgilangan¹⁹. Nomzodlardan nafaqat iqtisodiy bilimlar, balki moliyaviy nazorat ko'nikmalari ham talab etiladi. Mazkur yondashuv OTMlardagi audit sifatini an'anaviy taftish darajasidan zamonaviy tahliliy bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari (NOTM) sektorida olingan natijalar davlat sektoridan sezilarli darajada farq qilishi kuzatildi. Tahlillarga ko'ra, NOTMlarning cheklangan qismidagina alohida ichki audit shtat birligi mavjud²⁰. Aksariyat muassasalarda audit funksiyasi ta'sischi yoki buxgalteriya bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi, bu esa audit mustaqilligi tamoyilini yanada takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba, xususan AQSh va Koreya Respublikasi amaliyoti, nodavlat OTMlar uchun ham davlat subsidiyalaridan foydalanish sharti sifatida ichki audit tizimi mavjud bo'lishining muhimligini tasdiqlaydi²¹.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ichki audit xizmati tashkil etilgan OTMlarda byudjet intizomi ko'rsatkichlari yanada yuqori bo'lib, moliyaviy boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada yaxshilangani modellashtirildi. Ushbu natijalarga nafaqat an'anaviy tekshiruvlar, balki masofaviy monitoring hamda xatarlarni oldindan aniqlashga asoslangan risk-based audit (xatarga asoslangan audit)ning yondashuvlari orqali erishilmoqda.

Olingan natijalar O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ichki audit xizmati institutsional shakllanish bosqichidan professional rivojlanish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tahlillar ayrim muhim masalalarning yanada takomillashtirilishini talab etishini ko'rsatmoqda. Jumladan, OTMlarda ichki audit xizmatining rektorga bevosita bo'ysunishi (masalan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti misolida kuzatilganidek) institutsional mustaqillikni ta'minlashga xizmat qilsa-da, amaliy samaradorlikni yanada oshirish uchun qo'shimcha kollegial nazorat mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. VMQ-416-son qaroriga muvofiq, ichki audit xizmati rahbarini lavozimga tayinlash va ozod etish yuqori turuvchi vazirlik bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi²².

Xalqaro tajriba, xususan Buyuk Britaniyaning Office for Students reglamenti, ichki audit xizmatining nafaqat rektorga, balki kuzatuv kengashi yoki audit qo'mitasi kabi kollegial organlarga ham hisobdor bo'lishi samarali model ekanini ko'rsatadi. Bunday tizim auditor xulosalarining ijro etuvchi boshqaruvdan mustaqilligini kuchaytiradi²³.

VMQ-280 hamda VMQ-62-son qarorlari bilan joriy etilgan sertifikatlash tizimi professional malaka mezoni sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o'tkaziladigan imtihonlar auditorlardan buxgalteriya bilimlari bilan bir qatorda moliyaviy nazorat va xatarlarni aniqlash bo'yicha ko'nikmalarni ham talab etadi²⁴. Shu bilan birga, zamonaviy ichki audit konsepsiyasi strategik maslahat funksiyasini ham qamrab olgani sababli, kelgusida sertifikatlash dasturlariga risk management hamda biznes-tahlil modullarini kengroq joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning dolzarb yo'nalishlaridan biri NOTMlardagi ichki audit tizimini rivojlantirish masalasidir. Nodavlat sektorda ichki audit mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi moliyaviy shaffoflik tizimini mustahkamlash zaruratini ko'rsatadi²⁵. Shu nuqtai nazardan, NOTMlar uchun ham ichki audit xizmatini bosqichma-bosqich joriy etish muhim hisoblanadi, chunki ular talabalar to'lov-kontrakt mablag'lari bilan faoliyat yuritadi. Janubiy Koreya tajribasi xususiy universitetlarda qat'iy ichki audit tizimi joriy etilishi natijasida moliyaviy boshqaruv sifati sezilarli oshganini ko'rsatadi²⁶. O'zbekistonda ham NOTMlar uchun litsenziyalash talablari doirasida ichki audit standartlarini belgilash istiqbolli yo'nalishlardan biri sanaladi.

18 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 5-maydagi 280-son qarori. "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-5410856>.

19 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi 62-son qarori. "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining malaka sertifikatlash tartibi to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6382777>.

20 Meliboyev A.E. "Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ichki auditi: tahliliy ma'lumotlar". Central Asian Journal, 2025.

21 ACUA (Association of College and University Auditors). Global Audit Benchmarking Report for Higher Education. Washington, 2023.

22 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-avgustdagi 416-son qarori. "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizom". <https://lex.uz/en/docs/-6136910>.

23 National Audit Office (UK). Audit and risk assurance in higher education institutions. London, 2021.

24 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 13-fevraldagi 62-son qarori. "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining malaka sertifikatlash tartibi to'g'risida". <https://lex.uz/uz/docs/-6382777>.

25 Meliboyev A.E. "Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ichki auditi: Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun takliflar". Central Asian Journal, 2025.

26 Ministry of Education, Republic of Korea. Audit results of private universities receiving national subsidies. Seoul, 2022.



Hozirgi bosqichda OTMLarda ichki audit faoliyatini raqamli transformatsiya qilish dolzarb vazifa hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida auditni post-faktum emas, balki real-time rejimida amalga oshirish zarurati ortib bormoqda. Buning uchun audit jarayoniga ma'lumotlar tahlili (Data Analytics), sun'iy intellekt vositalari hamda zamonaviy ERP tizimlarini integratsiya qilish muhimdir. Mazkur yondashuv auditorlarning texnik kompetensiyasini oshirish bilan birga, barcha OTMLarda moliya-buxgalteriya tizimlarining ochiqligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim muassasalarida ichki audit xizmati faoliyatini tashkiliy-huquqiy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish natijasida bir qator umumlashtirilgan xulosalarga kelindi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 416, 280 va 62-son qarorlari asosida mazkur tizimda izchil vertikal boshqaruv hamda professional sertifikatlash mexanizmi shakllantirilgani aniqlandi. Ushbu yondashuv OTM ichki auditorlarining institutsional maqomini mustahkamlash bilan birga, ularning moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasidagi mas'uliyatini yanada oshirdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ichki audit xizmatining rektorga va ayni paytda vazirlikning ichki audit boshqarmasiga bo'ysunishi manfaatlar muvozanatini ta'minlashning samarali modeli hisoblanadi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti misolida kuzatilganidek, mazkur bo'limning moliya-xo'jalik tuzilmalaridan institutsional jihatdan ajratilgan holda faoliyat yuritishi audit xolisligi va obyektivligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kadrlar sifati va sertifikatlash tizimi tahlili shuni ko'rsatdiki, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tomonidan o'tkazilayotgan malaka imtihonlari sohada yuqori kompetensiyaga ega mutaxassislarni saralashga xizmat qiluvchi professional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa ichki audit xizmatining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratmoqda.

Olingan xulosalar asosida OTMLarda ichki audit samaradorligini yanada oshirish maqsadida bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, audit jarayonlarini to'liq raqamlashtirish va IT-audit tizimlarini joriy etish zarur. Bunda moliya-buxgalteriya dasturlariga ERP audit modullarini integratsiya qilish orqali masofaviy hamda real vaqt rejimidagi monitoringni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv nazorat tezkorligini oshirish bilan birga, inson omilini qisqartirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ichki audit tizimini joriy etish muhim yo'nalish sifatida baholandi. Nodavlat OTMLar uchun litsenziyalash talablari doirasida mustaqil ichki audit xizmatini tashkil etish bo'yicha me'yoriy talablarni belgilash talabalar mablag'laridan foydalanish shaffofligini kuchaytiradi va moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Audit faoliyatini rejalashtirishda xatarlarga asoslangan yondashuvni (risk-based approach) keng qo'llash ham dolzarb vazifa hisoblanadi. Oddiy tanlanma tekshiruvlar o'rniga ekonometrik modellar hamda risk heat map asosida eng muhim xavf zonalariga, jumladan davlat xaridlari, qurilish loyihalari va grant mablag'lari sarfiga ustuvor e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Bu resurslardan samarali foydalanish va moliyaviy xatarlarni barvaqt aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurati ham tadqiqotda asoslab berildi. OTM ichki auditorlarining Institute of Internal Auditors (IIA) hamda INTOSAI standartlari asosida malakasini oshirish, shuningdek, xalqaro Certified Internal Auditor (CIA) sertifikatlarini olishlarini rag'batlantirish tizimning xalqaro integratsiyasini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, ichki audit xizmati OTMLar uchun shunchaki nazorat organi emas, balki muassasaning strategik maqsadlariga erishishini qo'llab-quvvatlovchi, moliyaviy xatarlarni kamaytiruvchi hamda boshqaruv samaradorligini oshiruvchi muhim institutsional mexanizm sifatida faoliyat yuritishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 416-son qarori, 2022-yil-01-08. – <https://lex.uz/docs/6136910>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-son qarori, 2021-yil-05-05. – <https://lex.uz/ru/docs/-5410856>.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 62-son qarori, 2023-yil-13-02. – <https://lex.uz/uz/docs/-6382777>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. "Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini bosqichma-bosqich ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4958-son qarori, 2021-yil-24-12.
5. A. E. Meliboyev (2025). Nodavlat oliy ta'lim muassasalari ichki auditi: Xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun takliflar. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies.



6. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Universitet tashkiliy tuzilmasi: "Ichki audit va moliyaviy nazorat bo'limi".
7. The Institute of Internal Auditors (2024). Global Internal Audit Standards (International Professional Practices Framework – IPPF). Lake Mary, FL.
8. INTOSAI (2019). INTOSAI P-10: Mexico Declaration on SAI Independence.
9. National Audit Office (2021). Audit and Risk Assurance in Higher Education Institutions. London: NAO Publications.
10. Association of College and University Auditors (2020). Best Practices for Internal Audit in Higher Education. Washington, DC.
11. Ministry of Education (2023). Audit Results of Private Universities and Financial Management Reporting. Seoul: MoE Reports.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
